



IQBOL MIRZONING “USMON NOSIR” TRAGEDIYASIDAGI USMON NOSIR OBRAZI TALQINI

G‘ulom Atadjanov

O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi Akademiyasi O‘zbek tili va xorijiy tillar kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzoning “Usmon Nosir” tragediyasida Usmon Nosir obrazi talqini tahlil qilinadi. Asarda shoirning fojiviy taqdiri, qatag‘on davri ruhiyati, tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima uyg‘unligi yoritilgan. Dramaturg tomonidan retrospektiv syujet, dialog va konflikt vositasida Usmon Nosirning isyonkor ruhi, she‘riyatga sadoqati hamda insoniy fazilatlarini badiiy gavdalantirilgani tadqiq etiladi. Shuningdek, tragediyadagi Tergovchi, Tergovchi yordamchisi, Xolambibi, Nasima singari obrazlarning asar g‘oyaviy-badiiy mazmunini ochishdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: tarixiy tragediya, Usmon Nosir, Iqbol Mirzo, obraz talqini, qatag‘on davri, retrospektiv syujet, badiiy konflikt, tarixiy haqiqat, she‘riyat, dramatism.

Аннотация. В данной статье анализируется интерпретация образа Усмона Носира в трагедии народного поэта Узбекистана Iqbol Mirzo «Usmon Nosir». В произведении освещаются трагическая судьба поэта, духовная атмосфера эпохи репрессий, а также гармония исторической правды и художественного вымысла. Исследуется, как драматург посредством ретроспективного сюжета, диалогов и конфликтов художественно воплотил бунтарский дух Усмона Носира, его преданность поэзии и человеческие качества. Также раскрывается роль таких персонажей, как Следователь, Помощник следователя, Холамбиби и Насима, в раскрытии идейно-художественного содержания трагедии.

Ключевые слова: историческая трагедия, Usmon Nosir, Iqbol Mirzo, интерпретация образа, эпоха репрессий, ретроспективный сюжет, художественный конфликт, историческая правда, поэзия, драматизм.

Annotation. This article analyzes the interpretation of the image of Usmon Nosir in the tragedy “Usmon Nosir” by the People’s Poet of Uzbekistan Iqbol Mirzo. The work highlights the poet’s tragic fate, the spiritual atmosphere of the repression era, and the harmony between historical truth and artistic fiction. The study examines how the playwright artistically embodies Usmon Nosir’s rebellious spirit, devotion to poetry, and human qualities through a retrospective plot, dialogues, and conflicts. It also reveals the role of characters such as the Investigator, Assistant Investigator, Xolambibi, and Nasima in revealing the ideological and artistic content of the tragedy.

Key words: historical tragedy, Usmon Nosir, Iqbol Mirzo, image interpretation, repression period, retrospective plot, artistic conflict, historical truth, poetry, dramatism.

KIRISH

Tug‘ma iste‘dod sohibi Usmon Nosirning 110 yillik yubileyi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga ko‘ra shoir, tarjimon va dramaturg Usmon Nosirning “Tanlangan asarlar”, “Usmon Nosir zamondoshlar xotirasi va muxlislari vasfida” kitoblari chop etildi [1.304]. Shoirning yubileyi munosabati bilan 2022 yilda uchta ijodkor tarixiy drama yaratdi. Bular I.Mirzo (“Usmon Nosir” tarixiy fojia), T.Mirzo (“Usmon shoir-osmon shoir”), J.Jovliev



(“Usmon Nosir”)lar drama yozishdi. Bu tarixiy dramalar janr nuqtayi nazaridan tarixiy fojia , musiqali tarixiy dramadir. Jumladan, O‘zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzoning “Usmon Nosir” tragediyasi uch parda, o‘n yetti ko‘rinishdan tashkil topgan tarixiy fojiviy asardir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Usmon Nosirning “Tanlangan asarlar”i va xotira to‘plamlari shoir hayoti va ijodini tarixiy asosda yoritadi hamda tragediyadagi voqealarning hujjatli negizini tashkil etadi. Iqbol Mirzo, T. Mirzo va J. Jovliyev dramalari esa Usmon Nosir obrazining badiiy talqinlarini qiyosiy o‘rganishga imkon beradi. Shuningdek, N. Rashidova, J. Eshonqul va D. Quronov ishlari adabiyot nazariyasi va obraz talqini masalalarini yoritib, maqolaning ilmiy asosini mustahkamlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tarixiy-falsafiy va adabiy-tahliliy yondashuvlar asosida Iqbol Mirzoning “Usmon Nosir” tragediyasida obraz talqini o‘rganiladi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy metoddan foydalanilib, asardagi Usmon Nosir obrazi boshqa mualliflar (T. Mirzo, J. Jovliyev) dramalaridagi talqinlar bilan solishtirildi. Shuningdek, strukturaviy-tahliliy metod orqali tragediyaning syujet qurilishi, konflikt tizimi va obrazlar funksiyasi tahlil qilindi. Germenevtik yondashuv asosida esa matnning ichki ma’nosi, badiiy ramzlar va muallif g‘oyasi sharhlab berildi. Bundan tashqari, intertekstual tahlil yordamida Usmon Nosir hayoti va ijodiga oid tarixiy manbalar hamda badiiy asarlar o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi. Mazkur metodlar majmuasi tragediyada tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima uyg‘unligini yoritishga xizmat qildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Ushbu tragediyada dramaturg XX asr o‘zbek she’riyati osmonida chaqin kabi chaqilib, qisqa umri davomida katta iste’dodini namoyon etgan navqiron shoir Usmon Nosirning fojiviy qismatini dramaga asos qilib olishgan. Muallif qatag‘on qurboni bo‘lgan o‘zbekning asl farzandi Usmon Nosirning hayoti, ijodi va surgunda azoblanib bu dunyodan ko‘z yumushini ta’sirchan, hayotiy, adabiy va tarixiy fakt, hujjatlar asosida mahorat bilan badiiy gavdalantirgan. Akademik Naim Karimov “Iqbol Mirzoning “Usmon Nosir” pesasi xususida” kirish maqolasida shunday deydi: “Usmon Nosir haqida, ayniqsa, sahna asarini yozish qiyin. Muallif bunday asarda iloji boricha tarixiy haqiqatdan chekinmasligi kerak. Shoir chekkan azoblarni ko‘rsataverish ham tomoshabinni toliqtiradi. Iqboljon juda to‘g‘ri yo‘lni topgan. 25 yoshida ijod olamidan badarg‘a qilingan shoirni faqat uning She’riyati ko‘tarib turadi. Bu asarning ikkita bosh qahramoni bor. Ulardan biri – Usmon Nosirning o‘zi bo‘lsa, ikkinchisi esa – She’riyat. Ba’zan She’riyat asarda Usmon Nosir qiyofasida chiqib, pora-pora etilgan dil jarohatlarini ochadi. Ba’zan Usmon Nosir She’riyatning shohona libosida gavdalanib, o‘zining o‘chmas insoniy va ijodiy qudratini ko‘rsatadi” [2.56].



Iqbol Mirzo Usmon Nosirning hayoti va fojiali qismatini aks ettirishda tarixiy dramada o'ziga xos syujet qurilmasidan foydalanadi. Ya'ni, dramaturg "Bugun-O'tmish" syujet liniyasi asosida qamoqxona va Usmon Nosirning bolaligi, talabalik davri, ijodkorligi, tarjimonligiga doir hayotiy va tarixiy faktlarni ketma-ketlikda beradi. Iqbol Mirzo biroz murakkab, ammo tushunarli sahna ko'rinishlarida buyuk iste'dod sohibi Usmon Nosirni qatl etgan jamiyat, bu jamiyatdagi hasadgo'y kishilarning asl basharasini fosh etgan. Uch dramaturg I.Mirzo, T.Mirzo, J.Jovliev tarixiy dramatik asarlar matnida Usmon Nosirning isyonkor va fusunkor she'riyati hamda tarjimalaridan ("Boqchasaroy fontani", "Demon") unumli foydalangan.

Iqbol Mirzo asli Andijonlik bo'lgani uchun ham Usmon Nosir tug'ilib o'sgan Namangan va Qo'qon shevasini drama qahramonlari nutqida keng istifoda etgan. Dramaturg asarda vodiy odamlariga xos soddalik va milliylikni yorqin aks ettirishda namangan shevasiga xos unsurlar, xalq o'yinlari va maqollaridan barakali foydalangan. Dramaturg shoirning tarjimaiy holiga doir hayotiy va tarixiy faktlarni ifodalashda Akademik Naim Karimovning Usmon Nosirning hayoti va ijodi bo'yicha chop etilgan qator ilmiy tadqiqotlaridagi hujjatli faktlarga asoslanadi.

Bilamizki, Usmon Nosir hayoti afsonaviylashib ketib, shoir haqidagi mish-mishlar salkam hayotiy haqiqatga aylanib ketgan. Shu ma'noda har uch dramaturg afsonalarga aylangan Usmon Nosir adabiy shaxsiyatini to'la qonli ochib berish maqsadida og'izdan og'izga ko'chib yurgan og'zaki ma'lumotlardan ham unumli foydalangan. Iqbol Mirzoning tarixiy fojiasida Usmon Nosir, Tergovchi, Tergovchi yordamchisi, Xolambibi, Hamza Hakimzoda, Po'lat Qayum, Ashurali Zohiriy, Muxtor Muhammadiy, Qori Niyoziy, Subhiy afandi, Mo'ydinjon, Madamin(Amin Umariy), Nasima, Mayakovskiy, Musa Jalil, Qodiriy, Oybek, Muhsin Hamidov, Shayxzoda, Abdulaziz, Mas'ul kotib, Kotib, O'rinbosar, Ravshanoy, NKVD xodimlari va boshqa obrazlar ishtirok etadi. Tragediyaning birinchi parda birinchi ko'rinishi qamoqxona tasviri bilan boshlanadi. Unda ikki qahramon tergovchi va shoirning savol-javobi aks etgan. Tergovchi shoirni og'ziga kelgan so'zlar bilan haqoratlaydi, so'kadi. Ushbu asar haqida iliq fikrlarini aytgan akademik N.Karimov yuqoridagi maqolasida shunday gaplarni aytadi: "Asardagi yana bir muhim masala – Tergovchi bilan Usmon Nosir o'rtasidagi "jang" sahnalari. Qatag'on mavzusiga bag'ishlangan qariyb barcha asarlarda tergovchilar o'ta nodon, o'ta johil, o'ta millatchi, insoniy qiyofasini yo'qotgan jonivor sifatida tasvirlanib keladi. Ushbu asarning dastlabki sahnalarida ham shunday aksilinson obrazini ko'ramiz" [3.34]. Adabiyotshunos juda to'g'ri e'tirof etgan. Usmon Nosirga bag'ishlangan to'rtta dramada ham tergovchi obrazi yaratilgan bo'lib, ular davrning salbiy, zulmkor tiplari sifatida badiiy ifodalangan. Masalan, N.Rashidova tarixiy dramasida Xayritdinov, Klyopov, Matveev, Marvin (NKVD xodimlari),



Iqbol Mirzoning tarixiy fojiasida Tergovchi, Tergovchi yordamchisi obrazlari ishtirok etadi.

Iqbol Mirzo tarixiy fojiada Tergovchi va Usmon Nosir o'rtasidagi konfliktni quyuc bo'yoqlarda beradi. Ammo Tergovchi yordamchisi Usmon Nosirning katta iste'dodini anglab yetadi. Naim Karimov ta'kidlab ko'rsatganidek, qatag'on mavzusida yozilgan asarlarda Tergovchi obrazi odatda shafqatsiz, johil, zolim, nodon odam sifatida ifodalanadi. Iqbol Mirzo yaratgan Tergovchi yordamchisi obrazida esa katarsis hodisasi yuz beradi. Tergovchi yordamchisi savol-javoblar jarayonida Usmon Nosirning aybsizligini tushunib yetadi, uning ulkan iste'dodiga qoyil qoladi. Usmon Nosirning rus tilini o'z ona tilidek mukammal bilishi, Pushkin va Esenin bilan tenglasha olgan yosh shoir bo'llib yetishganidan hayratlanadi. Tergovchi Usmon Nosirni Stalinni mahallasidagi bo'yoqchi juhudga o'xshatib xalqlar otasini haqorat qilganlikda ayblaydi. Tergovchi bilan Usmon Nosir o'rtasidagi savol-javob juda shiddatli kechadi. Jumladan:

Tergovchi: Voy-bo'y, "geniy!", tirmoqlaring qani? Yana devor tirmaladingmi?

Usmon Nosir (yuzini o'giradi): Agar erkak bo'lib qo'limdagi kishanni yechsang, ko'rsataman nima bo'lganini!

Tergovchi: Seni tilinggayam kishan solish kerak. Nazoratchini nega urding?

Usmon Nosir: Aytdimu, onamni so'kdi.

Tergovchi: Nima bo'пти? So'kkani bilan so'kilib qoladimi? Bizda, masalan, so'kmay gapirsang hurmatsizlik hisoblanadi.

Usmon Nosir: Unda nega Stalinni so'kdi deb menga ayb qo'yyabsan? Nega?!

Tergovchi: Sen xalqlar otasini so'kmagansan, haqorat qilgansan. Ikkovi boshqa-boshqa masala. Nima deganing esingdami?

Usmon Nosir: Ming marta aytdim, yozib ham berdim, Stalinni mahallamdagi bo'yoqchi juhudga o'xshatganman. Shu, xolos.

Tergovchi (O'rnidan sapchib turadi): Nima?! Shu, xolos?! Bilasanmi, sen aytgan bo'yoqchi-mo'yoqchilarning milliontasi o'rtoq Stalinning harom tukiga arzimaydi! Dohiyini kimgadir o'xshatish sen iprisqiga tushib qoldimi? Manavi qovoqkallangga to'pponchani tirab tepkini bosish uchun ana shu o'xshatishingni o'zi yetadi!

Usmon Nosir: Otsang ot! Jonimga tegding! Hammangga tupurdim! Tufu!

Tergovchi (yonidan revolverini chiqarib, otmoqchiday o'qtaladi. Keyin dastasi bilan Usmon Nosirning boshiga uradi): Senga o'q hayf! Sen Pushkin emassan!" [4.36-37].

Bu savol-javobda tergovchining Usmon Nosirga ayb qo'yishga harakat qilishi, dohiyparastligi; shoirning esa burro tili, qo'rqmasligi, keskin harakteri mahorat bilan ochib berilgan. Asarning to'rtinchi ko'rinishida Usmon Nosir tahsil olgan "Dorul-shafaqa" maktabi, sinfxonasi, u yerda dars bergan ustozlari Hamza,



Po'lat Qayum, Qori Niyoziy, Ashurali Zohiriy, Subhiy afandining muloqotlari aks ettirilgan. Ko'rinish yakunida Hamza Usmon Nosirga qarab nasihat qiladi. Mazkur parchani keltiramiz:

“Hamza: Kimga aytay?! Kim meni tushunadi?! Biz suyak-suyagiga qo'rquv urib ketgan, qon-qoniga xiyonat shimilgan bir elatmiz. Yo'qsa, bu naf oson aldanib qolmasdik. Bizga har bir milliy jumhuriyat o'z taqdirini o'zi belgilaydi, ichki ishiga aralashmaymiz deb qasam berdilar. Endi-chi? Dunyoning eng yirik saltanati bo'lgan Turkistonimizni har turli sun'iy nom ila parchalab tashladilar. Men bunday adolatsizlikka, riyokorlikka murosqa qilolmayman. (Biroz tin olib) Meni so'zlarim bu qora ko'zlarning hech yo'q bittasining ko'nglida yashab qolsa ham ming roziman. (Usmon Nosirga qarab) Sen, o'g'lim, bu yoqqa chiq-chi! Turonni eshitganmisan? “Shajarai turk” ni varaqlab ko'rdingmi? O'qi va uq, xulosa qil. Bu hayot shafqatsiz kurashdan iborat. Nomard ko'p, o'g'lim, sotqin ko'p. Hayoting oldinda, faqat hushyor bo'l. (“Yasha, Turon” qo'shig'i yangraydi)” [5.39].

I.Mirzo fojiasida Usmon Nosirning sevgilisi Nasima obrazi dramaning sakkizinchi ko'rinishida ishtirok etadi. Nasima yosh shoirning iste'dodini sevadi, uni “daho” deb olqishlaydi. Dramaturg shoirning “Sevgi sening shirin tilingdan” she'r matnini Usmon Nosir tilidan o'qitadi. Navqiron shoir “Asrlarni yig'latgan sevgi” tarixidan bahs qiladi. Nasima Usmonning yangi she'rini eshitar ekan, hayajonlanadi. Ushbu sahnada dramaturg Usmon Nosir va Nasima o'rtasidagi munosabatlarni aks ettirar ekan, uning haqiqiy oriyatli o'zbek erkagi ekanligiga urg'u beradi:

Nasima: Bilmasam... Haliyam yuragimda hadik bor. Birdan, kutilmaganda huuvv birdagiday shapaloqlab qolasizmi deyman. (Kuladi.)

Usmon Nosir: O'shanda men haq edim.

Nasima: Nega? Meni nima aybim boridi?

Usmon Nosir: Uchrashuvga taklif qilsa, xo'p deb yugurib chiqaverasanmi? O'zbek qizi, musulmonni bolasi...

Nasima: Voy, begona odam emas, siz o'zingiz taklif qilgansiz-ku! Nega chiqmas ekanman?

Usmon Nosir: U payt mening kimligimni bilmasding-ku! O'shanga jahlim chiqqan. Sinamoqqa takif qilgandim. Sen bo'lsang...

Nasima: Sizni o'shandayam juda yaxshi bilardim. Garchi birinchi marta ko'rib turgan bo'lsamam, g'oyibona tanirdim. She'rlaringizdan kimligingiz, yuragingiz, fe'lingiz ko'rinib turadi.

Usmon Nosir: Haliyam fikring o'zgarmadimi? O'zim ham she'rlarimga o'xshaymanmi?

Nasima: Judayam. Ikki ko'zingizday.

Usmon Nosir: Ehh! Qanday yaxshi! Seni shunday parivash sevsa, ishonsa, tan olsa! Bundan ortiq baxt bormi? Sen men uchun ilhom parisisan, seni topdimu,



o'zimni yo'qotdim. Sen sabab ilhomim daryoday jo'shdi. Uni tizginlay olmayman. Ehh! She'r sharsharaday quyilib keladigan bo'ldi. Rahmat senga, Nasimam, o'zimning farishtaginam! (Qizning qo'lidan o'padi.) [6.45-46]. I.Mirzo Usmon Nosirning Nasimaga nisbatan munosabatini dramada tasvirlar ekan, uning axloqsiz yigit emas, aksincha oriyatli, g'ururli yigit ekanligini isbotlaydi. Dramaning uchinchi parda, o'n beshinchi ko'rinishida Tergovchi, Tergovchi yordamchisi va Usmon Nosir o'rtasida savol-javob bo'lib o'tadi. Ana shu sahnada tergovchining Usmon Nosirga aytgan gaplari nafaqat o'sha davr uchun bugungi adabiy jarayon uchun ham tegishlidir. Zero, hamma davr va hamma tuzumlarda iste'dodli shaxslarning iste'dodsiz raqiblari bo'lgan. Tergovchining Usmon Nosirga qarata aytgan murojaati quyidagicha:

“Tergovchi: Yo'q, gap boshqa yoqda. Sen uchun she'riyat tiriklik sharti. Anavilar uchun esa adabiyot tirikchilik vositasi. Ular uyushmadan oylik olib, qozon qaynatadi, bola boqadi. Bugun maoshi to'xtasa, o'sha zahoti kasbini o'zgartiradi. Hamma joyda ishlab, yashab ketaveradi bu taraqqoslar. (Pauza.) Aybing shuki,.. sen talantsan! Gunohing shuki, hamma o'zingday soddadil deb o'ylaysan. Sen o'z iste'dodingni qurbonisan, geniy!” [7.56]. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, har uchala dramada farzandi uchun kuyib ado bo'lgan ona istirobi yuqori pafos bilan ifodalangan. Binobarin, adabiyotshunos Naim Karimov I.Mirzo tarixiy fojiasida tasvirlangan “ona sahnasi” bilan bog'liq jihatlariga e'tibor qaratib shunday yozadi: “Asarda yana bir muhim sahna bor. Bu sahnaning shabadalari oldin ham o'qtin-o'qtin esib turgan. Men bu sahnani “Ona sahnasi” deb atagan bo'lardim. Otadan erta yetim qolgan shoirni jabrdiyda onasi Xolambibi katta qilgan. Usmon Nosir o'rta maktabni tugatar-tugatmas Moskvaga, Rossiyaning tarixiy shaharlariga borib, dunyoni ko'ra boshlagan. Aksar umrini esa Toshkentda o'tkazgan. Ijod, do'stona gurunglar, safarlar tufayli bu dunyodagi birdan-bir mehriboni Xolambibini to'yib ko'rolmagan. Biz yashagan davrning dramatik-fojiaviy voqealari shuni ko'rsatadiki, har bir insonning mingta do'sti bo'lsa ham, birortasi Ona o'rnini bosa olmaydi. Dramaturg ana shu adabiy haqiqatni sahna imkoniyatlarini hisobga olgan holda spektakl finalida shunday ko'rsatganki, shu sahnagacha soyada yurgan Ona asarning uchinchi bosh qahramoniga aylanadi. Eng muhimi, u ona-Vatan timsoli darajasiga ko'tarilib, asar asosiy konsepsiyasining ochilishiga muhim hissa qo'shadi” [8.33-34]. Tarixiy fojining xotimasi ona faryodi bilan tugallanadi.

XULOSA

Iqbol Mirzoning “Usmon Nosir” tragediyasi shoirning fojiaviy taqdiri va ijodiy merosini tarixiy haqiqat hamda badiiy to'qima uyg'unligida yoritadi. Asarda Usmon Nosir obrazi She'riyat timsoli bilan bog'liq holda markaziy o'rin egallab, uning isyonkor ruhi va ijodiy qudrati ochib beriladi. Tergovchi va Xolambibi obrazlari esa davr fojiasi va ona-vatan g'oyasini kuchaytiradi. Natijada tragediya



Usmon Nosirni nafaqat tarixiy shaxs, balki ramziy-ma'naviy qahramon sifatida gavdalandiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Носир У. Танланган асарлар. (Нашрга тўплаб тайёрловчилар: Каримов Н., Қўчқорова М., Абдусамад М.) – Тошкент: Адабиёт, 2022-320 б; Усмон Носир замондошлар хотираси ва мухлислари васфида –Тошкент: Адабиёт, 2022-304 б.
2. Каримов Н. Иқбол Мирзониинг “Усмон Носир” пьесаси хусусида // Шарқ юлдузи. № 04.2022. – Б. 56.
3. Каримов Н. И. Мирзониинг “Усмон Носир” пьесаси хусусида // Шарқ юлдузи. № 04. 2022. – Б. 34.
4. Мирзо И . Усмон Носир // Шарқ юлдузи. № 04. 2022. – Б. 36-37.
5. Мирзо И . Усмон Носир // Шарқ юлдузи. № 04. 2022. – Б. 39.
6. Мирзо И . Усмон Носир // Шарқ юлдузи. № 04. 2022. – Б. 45-46.
7. Мирзо И . Усмон Носир // Шарқ юлдузи. № 04. 2022. – Б. 56.
8. Каримов Н. Иқбол Мирзониинг “Усмон Носир” пьесаси хусусида // Шарқ юлдузи. № 04. 2022. – Б. 33-34.

